


Qorako‘l tuman axborot – kutubxona markazi

Axborot – bibliografiya xizmati



Yubilyar asarlar – 2026

Adabiyotlar sharhi

Qorako‘l – 2026

Yaxshi kitoblarni bugun o‘qing,
yomon kitoblarni o‘qishga ertaga
albatta vaqt topiladi.

Isaak Barrou

So‘z boshi

Har bir gulning o‘ziga xos hidi va har bir dilning takrorlanmas mehri, ayniqsa, adabiyot uchun qadrlidir. Chunki adabiyot – saralangan badiiylik chamanidir. Inson diliga yo‘l topgan asarlarigina bu chamandan o‘rin ola biladi. Kitobxonlar qalbiga “jiz” etib tegmagan, unga zavq bermagan so‘xtasi sovuq asarlarga bu chaman chindan hayfdir. Shu sababli adabiyotga kitobxon qalbi orqali yo‘l topib kelmagan asar unda yashab keta olmaydi. Iste‘dodli qalbning mehri bilan yo‘g‘rilgan g‘oyaviy mazmun va yangicha go‘zallik xush bo‘yini taratadigan badiiy shakllarigina adabiyot chamaniga mos tushadi, uning boyligiga boylik, husniga husn qo‘shadi.

Inson tafakkuri va ma‘naviyatining shakllanishida kitobning o‘rni beqiyosdir. Kitob insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, unga hayot haqiqatlarini tushuntiradi va bilim olishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Buyuk allomalar ham ilm-fan taraqqiyotining asosi kitob ekanligini ta‘kidlaganlar. Darhaqiqat, tarixga nazar tashlasak, ilmli, zukko va muvaffaqiyatli insonlarning barchasi kitobga bo‘lgan qiziqish va mehr bilan ulg‘ayganlar.

Kitob inson hayotida muhim o‘rin tutadi. U bizga nafaqat bilim, balki tarbiya ham beradi. Kitobni sevgan inson hech qachon yolg‘iz qolmaydi, chunki u har doim o‘ziga sodiq va doimiy hamroh topadi. Buyuk mutafakkirlar: "Kitob – insonning eng yaxshi do‘sti, u hech qachon xiyonat qilmaydi va bizni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi", – deb bejizga aytmaganlar. Kitob o‘qishning foydalari beqiyos bo‘lib, u insonni ilmli, zukko va tafakkuri yuksak shaxsga aylantiradi.

Bugungi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda ko‘pchilik kitob o‘qish o‘rniga telefon yoki televizor ko‘rishga odatlanib qolmoqda. Lekin hech qanday texnologiya kitobning o‘rnini bosa olmaydi, chunki u hayotiy tajribalar, ilmiy haqiqatlar va insoniy qadriyatlar xazinasi hisoblanadi. Demak, kitobga do‘stdek munosabatda bo‘lish va uni hayotimizning ajralmas qismi sifatida qabul qilish har birimizning burchimizdir.

Aziz kitobxonlar! Ushbu bibliografik sharhni tuzishdan maqsadimiz siz azizlarni 2026-yilda yubiley sanalari nishonlanadigan asarlar bilan tanishtirishdir. Marhamat kutubxonamizdan olib o‘qishingiz mumkin.

Ushbu bibliografik sharx keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Adabiyotlar

Навоий, Алишер. Асарлар 15 томлик. Мажолисун-нафоис.Т.12 [Матн] / Алишер Навоий.Нашрга тайёрловчи ва сўнг сўз муаллифи Суйима Ғаниева. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1966. – 214 б.

Алишер Навоий эпик ва лирик, илмий ва тарихий асарлар ижодкори бўлиши билан бирга буюк тазкиранавис олим ҳамдир.

Алишер Навоийнинг “Мажолисун-нафоис”номли тазкираси бошқа тазкиралар орасида бир қанча принципал масалаларда ажралиб туради.Асарда Навоийнинг адабиётни жамият, халқ хизматига кўйишга интилиши,адбиётнинг чуқур ғоявийлиги ва юксак бадийлиги учун кураши кўзга ташланиб туради, унда Навоий замонасининг маданияти кенг акс эттирилгандир.

Навоий, Алишер. Асарлар 15 томлик. Назмул-жавоҳир. Арбаин. Насоимул-муҳаббат.Тарихи анбиё ва ҳукамо.Т.15 [Матн] / Алишер Навоий; муҳаррир: Азиз Қаюмов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1968. – 245 б.

“Насоимул – муҳаббат”Алишер навоийнинг тасаввурий йўналишдаги муҳим асрларидан биридир. Асар XV асрда ёзилган бўлиб, унда ислом оламидаги машҳур авлиёлар ва софийларнинг ҳаёти, ахлоқи ҳамда руҳий камолоти ҳақида маълумотлар берилади.

Асарнинг асосий ғояси – инсонни маънавий покликка, сабр, тавозеъ ва аллоҳга муҳаббат руҳида тарбиялашдир.

Ғулом, Ғафур. Асарлар.10 томлик.Т.2 [Матн]: шеърлар / Ғафур Ғулом. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1972. – 412 б.

Машҳур ўзбек ёзувчиси ва шоири Ғафур Ғуломнинг бадий меросини тўлиқ жамлаган йирик нашр ҳисобланади. Ушбу тўпламда адибнинг шеърлари жамланган. Китоб кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Олимжон, Ҳамид. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн томлик [Матн]: шеърлар / Ҳамид Олимжон. – Тошкент: Фан, 1979. – 404 б.

Ушбу “Мукаммал асарлар тўплами” улкан адиб меросини тўлиқ қамраб олганлиги билангина эмас, у қолдирган асарларнинг қўлёзмаларини аниқлаш, автографлардаги барча белгиларнинг сабабларини ўрганиш, матни, улардан ҳар бирининг тарихи тўғрисида муҳим маълумотларга эга бўлган манбадир.

Китоб кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Низом, Тўлан. Сайланма [Матн]: шеърлар, дostonлар, рубойлар / Тўлан Низом. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 384 б.

Шоир тўлан низом Мустақиллик куйчиси сифатида қатор мазмундор шеър ва дostonлари билан танилган. Унинг Чўлпон, Усмон Носир, Миртемирга бағишланган дoston ва лирик қиссалари, айниқса, “Уч сўз”, “Руҳи равоним”, “Оқ гул”, “Юракдаги гап” сингари асарлари шоир ижодий имкониятлари кенглигини кўрсатади. Тўлан Низом шеърларининг эркин руҳда жаранглаши, дostonлари мазмундорлиги ва рубойлари ўткир мантиқ асосида яралганлиги билан алоҳида эътиборга лойиқдир.

Суюн, А. Танланган асарлар [Матн]: шеърлар ва дostonлар / Азим Суюн; масъул муҳаррир: У.Қўчқоров. – Тошкент: Гафур Ғулом, 2015. – 416 б.

Азим Суюн адабиётимизнинг атоқли намояндаларидан. Шоирнинг йигирмадан ортиқ тўплами ўзбек тилида, шунингдек, унинг асарлари, асарларидан намуналар кўплам хорижий тилларда ҳам чоп этилган. Азалий ҳақиқат халққа яқинлик ижодкор иқтидорини белгилаб келган. Шу маънода Азим Суюн чинакам халқ, эл-юрт шоиридир.

Ушбу тўпламдан шоирнинг шеърлари ва дostonлари ўрин олган.

То‘xtaboyev, X. Qasoskorning oltin boshi [Matn]: roman / X. To‘xtaboyev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 400 b.

Mazkur asarda o‘zbek xalqining tarixida o‘chmas iz qoldirgan, xalq ozodlik harakatiga boshchilik qilgan qahramonlardan biri Namoz botir haqida so‘z boradi. Keng kitobxonlar ommasida kata qiziqish uyg‘otgan ushbu roman adabiyotimiz hazinasiga qo‘shilgan nodir javohirlardan biri hisoblanadi.

To‘xtaboyev, X. Besh bolali yigitcha [Matn]: sarguzasht-roman / X. To‘xtaboyev. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 283 b.

Bolalik – beboshlik deymiz. Ammo bu davr zahmatlarga, mashaqqatlarga limmo-lim. Bunday bolaning qalbi, dunyosi kattalar hayotiga yaqin bo‘ladi. O‘zi bilib-bilmay tafakkuri o‘tib, irodasi metin insonga aylanadi.

Sevimli adibimiz Xudoyberdi To‘xtaboyevning qayt-qayta o‘qiladigan ushbu asarini siz, aziz kitobxonlarga hadya etayotganimizdan mamnunmiz.

Воҳидов, Э. Севги шундай навбахорки [Матн]: шеърлар / Э.Воҳидов. – Тошкент: О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 144 б.

Ушбу сайланмада Ўзбекистон Қаҳрамони, ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидов қаламига мансуб инсон қалбининг энг инжа туйғуси – Муҳаббат

тараннуми ҳақидаги шеърлар жамланган. Шеърда севги баҳорнинг илк фаслига қиёсланади. Севги юракка илиқлик, кўнгилга нур олиб кирадиган куч сифатида талқин қилинади.

Yoqubov, O. Diyonat [Matn]: roman / O.Yoqubov. – Toshkent: Qaldirg‘och, 2019. – 376 b.

“Diyonat” – Odil Yoqubovning mashhur ijtimoiy-psixologik romanlaridan biridir. Asarda insonning vijdoni, halolligi va jamiyat oldidagi mas’uliyati asosiy masala sifatida yoritiladi.

Asar Odil Yoqubov ijodida eng muhim ma’naviy-axloqiy asarlardan biri hisoblanadi. Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.

Орипов, А. Танланган асарлар [Матн]: шеърлар / А.Орипов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2019. – 324 б.

Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Абдулла Ориповнинг ушбу китобида руҳият ва чуқур фалсафийлик омихта бўлган янги шеърлари жамланган. Зукко шеърхонлар улкан шоир ижоди янги мавзулар, янги ифода воситалари билан бойиганига, ўлмас ва азалий мавзулар янги ифода воситалари орқали очиб берилганига ишонч ҳосил қилиб, янги шоирона нигоҳдан завқ оладилар, деб умид қиламиз.

To‘xtaboyev, X. Shirin qovunlar mamlakati [Matn]: ertak- roman / X.To‘xtaboyev. – Toshkent: Ziyo nashr , 2021. – 168 b.

“Shirin qovunlar mamlakati” asari mashhur o‘zbek bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning sarguzasht va fantastik ruhdagi qissasi bo‘lib, asar bolalar uchun mo’ljallangan. Unda qiziqarli voqealar orqali ezgulik, halollik va mehnatsevarlik g‘oyalari keng targ‘ib qilinadi.

To‘xtaboyev, X. Jannati odamlar [Matn]: roman va ertaklar / X.To‘xtaboyev. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2021. – 299 b.

Jannati odamlar - Xudoyberdi To‘xtaboyevning ijtimoiy-falsafiy va tarbiyaviy ruhdagi yozilgan mashhur qissalaridan biridir. Asarda insoniy fazilatlar, jamiyatdagi munosabatlar, yaxshilik va yomonlik masalalari badiiy tarzda yoritiladi. Bu qissa yozuvchi ijodida chuqur ma’naviy mazmunga ega asarlardan biri hisoblanadi.

Tuzuvchi: M.Qulliyeva